

GIPS BUYUMLAR ISHTIROKIDA GRIZAYL USULIDA NATYURMORT CHIZISH

Jovliyeva Orasta

Shahrisabz davlat pedagogika institute Ijtimoiy fnlar fakulteti

“Tasviriy san’at va muhanislik grafikasi” yo’nalishi

2-bosqich 2-21-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Haydarova. M

Annotatsiya: *Ushbu maqolada grizayl usulida natyurmort chizishning ahamiyati, qo’llanilishi, chizishni nima uchun gipsli buyumlardan boshlash va ularning foydali tarflari haqida yoritib berilgan. Geometrik jismlar va ularni qanday usullarda chizish mumkinligi haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so’zlar: *grizayl, gips buyumlar, natura, tus.*

Natyurmort chizishni dastlab oddiy natura qo’yilmalaridan ,ya’ni, gipsli geometrik geometrik shakllardan iborat bo’lgan natyurmort chizishdan boshlagan ma’qul. Keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo’lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni astoydil ishlash, so’ng turli rangdagi, turli materiallilikdagi buyumlardan tuzilgan qo’yilmalarni tasvirlash mumkin.

Naturadan rasm chizish uchun obyektlar ketma-ketligi to’g’ri tanlanishi ya’ni, osondan qiyinga o’tish tamoyilidan foydalanib, hamda o’quv maqsadiga javob berishi lozim. Rasm chizish mashg’ulotlari tizimida geometrik shakllar tasvirini chizish muhim o’rin tutadi. Bosqich boshlanishida o’quv-ko’rgazma quroli sifatida oq gips shakllardan fydalaniladi.

To’g’ri geometrik shakllarni ya’ni kub, prizma, piramida, silindr, shar va boshqalarni chizish chog’ida yosh rassom naturani idrok etish qonun-qoidalarini tezroq o’zlashtiradi, rasmning perspektiv qonun-qoidalarini to’liq egallaydi hamda perspektiv qisqarishlar va nisbatlarni, ham naturani ham chizayotgan rasmni kuzatayotganda aniqlashda ko’z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantiradi. Oddiy geometrik shakllarni chizish yanada murakkabroq tabiiyjism tasvirini chizishda zarur bo’ladigan bilim va malakani egallashda muhim hisoblanadi. Buning uchun ushbu geometrik shakllarni turli ko’rinish va holatlarda chiziqli konstruktiv ravishda tasvirlay olish, keyinchalik qiyinroq shakllar tasvirini bemalol chiza olish imkonini beradi.

Gipsli geometrik shakllardan iborat bo’lgan natyurrmortni grizayl usulida ishlashni ko’rib chiqamiz. Undan avval grizayl haqida ma’lumotga ega bo’lishimiz kerak.

Grizayl so’zi franso’zcha so’z bo’lib “kulrang” ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atda esa bu rasmning o’ziga xos turning nomi. Ilgari u kulrang, jigarrang yoki qora ranglarda ishlangan.

O’rta asrlarda grizayl ichki bezakni yaratish uchun keng qo’llanilgan. O’sha davrning ko’plab saroylari va mulklarida tosh ichki bezakni taqlid qilish uchun grizayl ishlatilgan.

Mashhur Yan van Eyk ham bu usuldan foydalangan. Bosch va Brueghel ishlarida grizayl muhim o'rin egallagan. Ular uni haqiqiy tasvir texnikasiga aylantirdilar. O'sha davrning ko'pgina rassomlari jumladan, Van Tullen, Rubens, Van Deyk boshqalar ham foydalana boshladilar. Grizayl texnikasining eng mashhur namunasi ispan rassomining "Gernika" asaridir.

Monoxromatiklik grizaylning eng muhim tamoyilidir. An'anaviy ravishda kulrang-oq yoki jigarrang-oq ranglardan foydalaniladi. Ammo siz asarning asosiy g'oyasini yetkazish uchun oqilona ko'rinadigan har qanday boshqa rangdan foydalanishingiz mumkin. Ushbu texnikada ishlash uchun sepiya, moy, guash, akril, tempra, akvarel kabi materillardan foydalaniladi. Grizaylni o'zlashtirishni oddiy shakllar ya'ni gipsli geometrik shakllar bilan boshlash yaxshi.

Natyurmort tasviri qalamda konstruktiv jihatdan to'g'ri chizib olingach, har bir narsa va buyumning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o'tiladi. Haqqoniy qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsadagi yorug' va soyalar gradatsiyasi va ularning ranglardagi o'zaro tusli farqlarini to'g'ri hal etish orqali erishildi. Rang jihatdan ba'zi narsalar naturada zich va to'qroq-"og'ir", gipsli buyumlar, geometrik shakllar, qog'oz rulon kabilarda esa soyalar ancha ochroq -"nozik" ko'rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu paytda narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Grizayl usulida natura qo'yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och to'qligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligini ko'rsatadi.

Natyurmortda bir nechta gipsli geometrik shakllar qo'yilgan bo'lsa, ularning qaysi planda turganiga qarab tusi ajratiladi. Har bir narsaning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur narsalarning o'zaro och joylarini, soyani-soyalar bilan, yarimtusni-yarimtuslar bilan taqqoslanadi. Geometrik jismlar va ularni orqa fondagi drapirovkasi bilan o'zaro solishtirib tusi topiladi.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan qoplash, lekin iloji boricha bo'yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan, bo'yoq surtmalarini shakl yo'nalishi bo'yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo'lgan narsaga turli tasodifiy yo'nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko'rsatish mushkuldir.

Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo'yicha, balki uning aniqliligini ham narsalar sirtlarining kantrastli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. Har bir narsaning ko'rinib turgan tashqi ko'rinishi uzining ko'lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug'lik kuchi bo'yicha fonga nisbatn yaqinroq bo'lishi mumkin. Shu narsaning o'ng tomonidagi chegarasi tus jihatdan fon bilan deyarli qo'shilib, uning yuqori qirrasida fonda yaqqol ajralib turadi.

Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini yorug'-soya bilan ham puxta ishlash kerak. Gipsli narsalarning-sharsimon va silindrsimon shakllar yorug'likdan soyaga borib turib yuzasining

har bir millimetri asta sekin to'qlashtiriladi, buning ustiga shaxsiy soyasining eng to'q joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha, bir oz ichkari tomonida bo'ladi. Tashqi ko'rinishning o'ng tomonidagi shaxsiy soyasi refleks tufayli yoritiladi.

Tekisliklar bilan chegaralangan prizma, kub va hokazo narsalarning yorug'-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish izchilligining xususiyati shundan iboratki, har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib, o'zining ma'lum tusiga ega bo'ladi. Bunday narsalarning hajmi-hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug'likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo'ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham, kichik shakllarga ham tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo'ladi. Agarda bir qatorga bir xilnarsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsaning mayda bo'laklari va materiallilik fakturasi ancha aniqrog' ko'rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo'qolib, xiralasha boradi. Uzoqdagi obeyktlar siluetli va tekis, ya'ni, yassi bo'lib ko'rinadi. Old ko'rinishdagi buyumlarning yorug'-soya qismlari uzoqdagidan ravshan va aniqrog' ko'rinadi.

Narsalarning hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so'ng, ularni umumlashtirishga o'tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida mayda bo'laklarni, ularni umumlashtirishga o'tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida mayda bo'laklarni, ularning yorug' soyasini maromiga yetkazib ishlash lozim. Narsalar guruxini yaxlit bir butun tasvirlash uchun hammasini bir vaqtda kuzatib, har birining yorug' va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak.

Yuqorida aytib o'tganlarimizdan xulosa qilsak, tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib, u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o'zlarining dastlabki isharida faqat rang bilan ovvora bo'lib, qo'yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar oq va qora bo'yoqlarda naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat berganlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: "Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan ko'ra, ranglardaa berish murakkabdir. Shuning uchun rangtasvirga o'tishda yorug'likdagi tusga bo'lgan ko'nikmaga ega bo'lish kerak...". Demak, rangtasvirning boshlang'ich kursida grizayl texnikasida gipsli gemetrik shakllardan iborat bo'lgan natyurmortlardan mashqlar bajarishni boshlagan ma'qul.

Qo'yilma qalamda konstruktiv jihatdan mukammal chizib bo'lingach, ranglash uchun hozirlik ko'riladi. Avval qog'oz mo'yqalam bilan namlab olinadi. So'ngra tasvirning oppoq joyidan boshlab hammasi suyuq bo'yoq eritmasi bilan qoplanadi. Soyalarni birdan qoraytirmasdan, asta-sekinlik bilan bir qatlam qurigach, ikkinchisini surtish kerak. Ayniqsa, gipsni bo'yashda haddan tashqari to'qlashtirmasdan, iloji boricha yengil ranglar bila bo'yash to'g'ri bo'ladi. Geometrik shakldagi gips buyumlarni ishlashda ularni ton jihatdan

ajrata olish katta mahoartni talab qiladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Tasvirlashda metodik ketma-ketlikka rioya etib bo'yash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Natyurmortni bo'yashning oxirgi bosqichida kichik mo'yqalam bilan har bir bo'lakka puxta ishlov berish, narsalarning asoslari yonidagi soyalarni biroz to'qlashtirib, qo'yilmani yaxlit va hamohang ko'rinishga erishish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. T.: O'qituvchi 1981.
- 2.Abdurahmonov G. M. Rangtasvir va kompozitsiya. T.1995.
- 3.Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T. "O'qituvchi", 1984.
- 4.Ten N. Gips modellarining rasmi. "Fan", 1995.
- 5.Boymetov B. Qalamtasvir. T, G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijod uyi, 2006.
- 6.Oripova N. Rangtasvir. T, 2003.